

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

KECHKI TA’LIM VA MAGISTRATURA FAKULTETI

Qo'lyozma huquqida
UDK:338:336.74

IBRAGIMOVA DILDORA ABZAIROVNA

**IQTISODIYOTNI PUL-KREDIT (MONETAR SIYOSAT)
VOSITALARI ORQALI TARTIBGA SOLISH**

**70310102 – Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar bo'yicha) mutaxassisligi
bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYA


Ilmiy rahbar:

I.f.n: Yaxshiyeva M.

Toshkent-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar:



i.f.n: Yaxshiyeva M.


Kafedra mudiri:



i.f.n., prof. X. Asatullayev

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti

dekani:




i.f.d., prof. J. Karimqulov

Gymnastika
29.05.2025

30.05.2025

Men, Ibragimova Dildora Abzairovna ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'ygan holatimda magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy Davlat Attestatsiya Komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.



29 05 2025yil

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI
BAYONNOMASI

Toshkent shahar

2025 yil "11" avgust

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar
mutaxassisligi MEKP-03 guruhi magistranti

Abdullayeva Durdona Abduraximovna ning
" Monetaristik va kredit (monetar-
savlat) vositalari orqali tushirib
borish " mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

- 1) Dissertatsiyada bir qancha mavzularni
mavzuniq ma'lumotlar tushirib olib
berilgan.
- 2) Dissertatsiyada bir qancha mavzularni
mavzu, mavzu mavzulari tushirib olib
berilgan.
- 3) Mavzu mavzulari tushirib olib
berilgan mavzu mavzulari tushirib olib
berilgan.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga tavsiya
etiladi/tavsiya etilmaydi) havola mavzu

Komissiya raisi:

Komissiya a'zolari:

Abdullayeva Durdona
Abdullayeva Durdona
Abdullayeva Durdona
Abdullayeva Durdona

Izoh:

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

ANNOTATSIYA

Ushbu magistrlik dissertasiya ishida har bir mamlakatning makroiqtisodiy hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydigan davlatning monetar siyosati haqida so'z boradi. Jahon iqtisodiyotida hozirgi kunda kuzatilayotgan turli davlatlar o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlar, iqtisodiy va moliyaviy inqirozlar, pandemiyalar davlat iqtisodiyotiga jiddiy ta'sir etib, asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlar hisoblangan bandlik, inflyatsiya, foiz stavkasining tebranishiga olib kelmoqda va iqtisodiy va moliyaviy o'zgarishlarga turtki bo'lmoqda. Bunday iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlarga javoban pul- kredit siyosati samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tadqiqotning maqsadi monetar siyosat vositalaridan foydalangan holatda davlatning iqtisodiy va moliyaviy barqarorligiga erishish uchun turli yondashuvlar, vositalar va metodologiyalarni o'rganishdir. Bu borada xorijlik va mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tadqiq etilgan.

Shu nuqtai nazardan, ushbu dissertatsiya ishida O'zbekistonda monetar siyosat vositalaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilingan, mavjud muammolar aniqlangan va ularning ilmiy yechimlariga oid ilmiy-nazariy, amaliy taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: monetar siyosat, iqtisodiy o'sish, makroiqtisodiy barqarorlik, Markaziy bank, inflyatsiya, milliy vayuta, devalvatsiya, revalvatsiya, majburiy zaxira siyosati, ochiq bozor siyosati, qayta moliyalash siyosati

Summary

This Master's dissertation is about the monetary policy of the state, which plays a key role in ensuring the macroeconomic and financial stability of each country. Political conflicts between different countries, economic and financial crises, pandemics, and epidemics observed in the world economy have a serious impact on the state economy, leading to fluctuation of employment, inflation, interest rate, which are the main macroeconomic indicators, and economic and financial development. is driving change. In response to structural changes in such an economy, it is important to improve the effectiveness of monetary and credit policy. The purpose of this study is to study different approaches, tools and methodologies to achieve economic and financial stability of the state using monetary policy tools. In this regard, the scientific-theoretical views of foreign and domestic economists have been researched.

From this point of view, this dissertation analyzed the practice of using monetary policy tools in Uzbekistan, identified existing problems, and gave scientific-theoretical, practical proposals and recommendations for their scientific solutions.

Key words: *monetary policy, economic growth, macroeconomic stability, Central Bank, inflation, national currency, devaluation, revaluation, mandatory reserve policy, open market policy, refinancing policy*

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I BOB. IQTISODIYOTNI PUL-KREDIT SIYOSATI ASOSIDA TARTIBGA SOLISHNING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI.....	12
1.1. Pul-kredit siyosati tushunchasining mohiyati va konseptual asoslari	12
1.2. Pul-kredit siyosatni amalga oshirishning vositalari va ulardan foydalanish yo'nalishlari.....	19
1.3. Samarali pul-kredit siyosatini olib borish bo'yicha qabul qilingan mahalliy me'yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi hamda tahlil uchun qo'llanilgan usullar	33
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	38
II BOB. O'ZBEKISTONDA PUL-KREDIT SIYOSATINING AMALDAGI HOLATI TAHLILI	40
2.1. Mamlakatimizda makroiqtisodiy sharoitlar va pul-kredit siyosati tahlili	40
2.2. Monetar instrumentlar va monetar indikatorlar o'rtasidagi aloqadorlikning tahlili	51
2.3. Makroiqtisodiy o'sishni ta'minlashda monetar siyosatni takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasi va ulardan O'zbekiston sharoitida foydalanish imkoniyatlari.....	56
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	73
III BOB. O'ZBEKISTONDA PUL-KREDIT SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI.....	75
3.1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki monetar siyosatining iqtisodiyotni rivojlantirishdagi rolini oshirish yo'llari	75
3.2. Pul-kredit siyosati instrumentlarini takomillashtirish istiqbollari.....	81
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	85
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	87
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	90

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Ma'lumki, moliyaviy oqimlar iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Barqaror pul tizimi esa pul aylanishining uzluksizligini ta'minlab, iqtisodiy taraqqiyotga turtki beradi. Bu tizim ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish salohiyatidan maksimal darajada foydalanishga zamin yaratadi hamda to'liq bandlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Pul-kredit siyosati esa ushbu iqtisodiy muvozanatni muvofiqlashtirish va mustahkamlashda hal qiluvchi vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, pul-kredit siyosati iqtisodiyotni samarali boshqarish va tartibga solishning kuchli iqtisodiy instrumentidir.

Zamonaviy global iqtisodiy sharoitda, O'zbekistonda monetar siyosatning muvaffaqiyati, hamkor mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlashga ham bog'liq. Tashqi iqtisodiy omillar, masalan, energiya narxlari va biznes muhitining yaxshilanishi, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli, monetar siyosat nafaqat ichki iqtisodiy holatni yaxshilash, balki xalqaro iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi davrda jahondagi markaziy banklar, xususan, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy vazifasi — narxlar barqarorligini saqlash, iqtisodiy o'sish sur'atlarini qo'llab-quvvatlash hamda yuqori bandlik darajasini ta'minlash uchun zaruriy makroiqtisodiy shart-sharoitlarni yaratishdan iboratdir. Bugungi kunga kelib, barcha mamlakatlar uchun umumiy bo'lgan makroiqtisodiy beqarorliklardan biri hisoblangan inflyatsiya murakkab ijtimoiy- iqtisodiy nomutanosiblikni yuzga keltirishi mumkin. Mamlakatda inflyatsiyaning yuqori darajada va uzoq muddat davom etishi iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, valyuta bozorini erkinlashtirishga qaratilgan islohotlarning muvaffaqiyatli yakunlanishi ko'p jihatdan pul-kredit siyosatini takomillashtirish, tijorat banklari faoliyatini mustahkamlash hamda bank sektorini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligiga bevosita bog'liqdir. Ushbu siyosat